
FA Xodimi (televizorlarni qadoqlash nazorati) Lavozim Yo'riqnomasi

1. Umumiy qoidalar

- 1.1. FA xodimi (qadoqlash nazorati) ishlab chiqarish xodimlari toifasiga kiradi va televizorlarning yakuniy yig'ish bo'limida ishlaydi.
- 1.2. FA xodimi to'g'ridan-to'g'ri smena rahbari/uchastka ustasi va ishlab chiqarish bo'yicha katta ustasiga bo'ysunadi.
- 1.3. FA xodimi o'z faoliyatini ushbu lavozim yo'riqnomasi, kompaniyaning ichki reglamentlari, ISO sifat standartlari hamda rahbariyat ko'rsatmalari asosida amalga oshiradi.
- 1.4. Lavozimga tayinlash va ozod etish tashkilot rahbarining buyrug'i bilan amalga oshiriladi.
- 1.5. Agar FA xodimi vaqtincha ishda bo'lmasa, uning vazifalari rahbariyat tomonidan tayinlangan boshqa xodimga yuklatilishi mumkin.

2. Lavozim majburiyatlari

- 2.1. Televizorlarni belgilangan standartlar va texnologik kartalarga muvofiq qadoqlash jarayonini nazorat qilish.
- 2.2. Qadoqlash tarkibining to'g'riliqini, butlovchi qismlar muvofiqligini va barcha zarur hujjatlarning mayjudligini tekshirish.
- 2.3. Qadoqlash materiallarining sifatini vizual nazorat qilish va ularning belgilangan talabga mosligini ta'minlash.
- 2.4. Mahsulotni mexanik shikastlanishlar, namlik va boshqa tashqi omillardan himoya qilish talablariga rioya etilishini ta'minlash.
- 2.5. Qadoq ustiga qo'yilgan markirovkaning to'g'riliqini va belgilangan standartlarga mosligini tekshirish.
- 2.6. Qadoqlashning germetikligini, ichki elementlarning ishonchli mahkamlanganligini nazorat qilish.
- 2.7. Qadoqlangan mahsulot birliklarini hisobga olish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish va rahbarga hisobot berish.
- 2.8. Mehnat xavfsizligi, mehnat muhofazasi va sanitariya qoidalariga rioya qilish, xavfsizlik bo'yicha muntazam yo'riqnomasi olish.
- 2.9. Ish joyining tozaligini va tartibini saqlash, qadoqlash chiqindilarini o'z vaqtida yo'q qilishni

ta'minlash.

- 2.10. Qadoqlash jarayonida aniqlangan nomuvofiqliklar, qadoq nuqsonlari va boshqa kamchiliklar haqida rahbarga xabar berish hamda ularni bartaraf etish yo'llarini taklif qilish.
- 2.11. Qadoqlash jarayoni bilan bog'liq rahbariyatning boshqa topshiriqlarini bajarish.

3. Huquqlari

- 3.1. Ish beruvchidan xavfsiz mehnat sharoitlarini, uskunalar va asboblarning soz holatda bo'lishini ta'minlashni talab qilish.
- 3.2. Qadoqlash jarayonini yaxshilash va mahsulot sifatini oshirish bo'yicha takliflar kiritish, ish yig'ilishlarida ishtirok etish.
- 3.3. Bevosita rahbaridan bajariladigan ish bo'yicha ma'lumot va tushuntirish olish.
- 3.4. Hayot va sog'liq uchun xavf tug'diradigan ishlardan bosh tortish va bu haqda rahbariyatga zudlik bilan xabar berish.
- 3.5. Korxona hisobidan qo'shimcha o'quv va malaka oshirish kurslaridan o'tish.

4. Javobgarlik

- 4.1. FA xodimi qadoqlash texnologik jarayonlariga rioya qilmaslik natijasida mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi uchun ichki reglamentlar va qonunchilikka muvofiq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.
- 4.2. Mehnat intizomi, mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi qoidalarini buzganligi uchun qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladi.
- 4.3. Lavozim majburiyatlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish uchun javobgarlikni oladi.
- 4.4. Ehtiyyotsizlik yoki yo'riqnomalarga rioya qilmaslik natijasida qadoqlash materiallari, asboblar va butlovchi qismlarni buzganligi uchun javobgar bo'ladi.
- 4.5. Qadoqdagi nuqsonlarni yashirish va bu haqida rahbariyatga o'z vaqtida xabar bermaslik uchun javobgarlikni oladi.

5. Yakuniy qoidalar

- 5.1. Ushbu lavozim yo'riqnomasi FA xodimi tomonidan imzolangan va rahbariyat tasdiqlagan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.
- 5.2. Yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar taskilot rahbarining buyrug'i bilan kiritiladi va xodim majburiy ravishda tanishtiriladi.
- 5.3. FA xodimi ushbu yo'riqnomasi bilan tanishganligini imzosi bilan tasdiqlaydi, bu esa qoidalar va majburiyatlar bilan roziligin anglatadi.

